

**VENALARNING VARIKOZ KENGAYISHI: SABABLARI, BELGILARI
VA DAVOLASH USULLARI**

No‘monov Rustamjon Madaminovich

Asaka Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Xirurgiya kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada venalarning varikoz kengayishi, ya’ni tomirlarning kengayib, deformatsiyalanishi bilan kechuvchi surunkali qon aylanish buzilishi haqida so‘z boradi. Unda varikozning asosiy sabablari, klinik belgilari, diagnostik usullari, profilaktik choralari hamda zamonaviy davolash usullari yoritib berilgan. Shuningdek, ushbu holatning ayollar salomatligiga salbiy ta’siri va hayot sifati bilan bog‘liq muammolari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: varikoz, vena, qon aylanish, tomir kasalligi, dori-darmon, skleroterapiya, profilaktika.

Bugungi kunda varikoz kasalligi dunyo bo‘yicha eng ko‘p uchraydigan va jiddiy e’tibor talab qiladigan sog‘liq muammolaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Uning keng tarqalganligi, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar tajribasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, AQSH va Yevropa davlatlarida har to‘rt kishidan biri ushbu kasallikning biror ko‘rinishidan aziyat chekmoqda. Bu esa kasallikning global miqyosdagi tarqalish darajasi qanchalik yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Alohida ta’kidlash joizki, varikoz, ya’ni venalarning kengayishi va ularning funksional buzilishi, ayniqsa oyoq sohasida, ishlab chiqarish sohasida faoliyat yurituvchi kishilar orasida keng tarqalgan. Masalan, Moskva shahridagi sanoat korxonalarida ishlovchi ayollarning 57,5 foizi va erkaklarning 50,4 foizi ushbu xastalik belgilari bilan yuzma-yuz kelmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, inson yoshi ortgani sayin kasallik xavfi ham ortib boradi, bu esa demografik jihatdan ham dolzarb muammoga aylanmoqda.

Xuddi shunday holat O‘zbekiston aholisida ham kuzatilmoqda — ayniqsa uzoq vaqt tik oyoqda turishni talab qiladigan kasb egalari, ofis ishchilari va uy



bekalari orasida varikoz kasalligiga chalinganlar soni tobora ortib bormoqda. Bu holat kasallikka qarshi profilaktika choralarini ko'rish, dastlabki alomatlarini erta aniqlash va zamonaviy tibbiy texnologiyalar yordamida uni davolash usullarini yanada chuqurroq o'rganish zaruratini tug'diradi.

Shuningdek, varikoz kasalligi ko'plab boshqa tibbiy va ijtimoiy muammolar bilan bevosita bog'liq bo'lib, u inson mehnat qobiliyatining pasayishiga, hayot sifatining yomonlashishiga va ba'zan nogironlikka olib kelishi mumkin. Ayniqsa ishlab chiqarish korxonalarida band bo'lgan ishchilar orasida ushbu xastalikning ommaviylashuvi, mehnat unumdorligining pasayishi va kasbga yaroqsizlik holatlarining ortishiga olib kelmoqda. Bu esa kasallikni faqat tibbiy nuqtai nazardan emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Ya'ni, varikoz kasalligini chuqur tadqiq qilish, uning rivojlanish mexanizmlarini aniqlash, erta tashxis qo'yish usullarini takomillashtirish hamda davolash va profilaktika choralarini kengaytirish — zamonaviy tibbiyotning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Venalarning varikoz kengayishi — bu venalarning doimiy ravishda kengayib, cho'zilib borishi natijasida qon aylanishining buzilishi bilan tavsiflanadigan kasallikdir. Ko'proq oyoq sohasidagi chuqur bo'lmagan venalarda uchraydi. Bu kasallik ayniqsa ayollar orasida keng tarqalgan bo'lib, hayot sifatiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Venalarning varikoz kengayishiga olib keluvchi asosiy omillar quyidagilardir:

- Irsi moyillik (genetik omillar)
- Hormonal o'zgarishlar (homiladorlik, klimaks)
- Ortiqcha tana vazni
- Kamharakat hayot tarzi
- Uzoq muddat tik turgan holatda ishlash
- Nosog'lom ovqatlanish va qorin ichki bosimining ortishi

Shuningdek, varikoz kasalligining asoratlari qatoriga terida yaralarning paydo bo'lishi, yuzaki shikastlanishlarda venoz qon ketishi, tromboflebit, trofik yara va flebotromboz kiradi. Hozirgi kunda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan



1998 yilda taklif etilgan varikozel kasalligiga oid zamonaviy tasnifdan foydalaniladi. Bu tasnifda jinsiy bezlar holati ham inobatga olinadi.

Varikozel — bu moyak va spermatik tomirlarning kengayishi boʻlib, qon aylanishi buzilishiga olib keladi. Ushbu kasallik yoshlardagi erkaklar orasida 10–15% holatlarda uchraydi. Shuningdek, birlamchi bepustlik (yaʼni ilgari umuman farzand koʻrmagan) bilan ogʻrigan erkaklarning 30–40% ida, ikkilamchi bepustlik (yaʼni ilgari farzand koʻrgan, ammo hozirda bepustlik kuzatilayotgan) holatlarda esa 80% gacha erkaklarda aniqlanadi.

Varikozelning asosiy alomatlari — bu skrotumda (moʻyak qopchasida) ogʻriq, spermatozoid ishlab chiqarilishining buzilishi, moyakning kichrayishi (atrofiya) hamda moyaklar tomonidan testosteron gormonining yetarlicha ishlab chiqarilmasligidir.

Davolash usullari quydagilarni tashkil etadi:

1. Konservativ davolash:

- Kompression paypoq kiyish
- Venotonik dorilar (masalan, Detraleks, Venarus)
- Mahalliy surtmalar (Lioton-gel, Troxevasin)

2. Minimal invaziv usullar:

- Skleroterapiya – vena ichiga maxsus moddalar yuborish orqali yopish
- Lazer yoki radiochastotali ablatsiya
- Endovenoz koagulyatsiya

3. Xirurgik usul:

- Venani olib tashlash (flebektomiya)
- Profilaktika
- Harakatchan turmush tarzini olib borish
- Uzoq muddat tik turganda harakat qilish
- Maxsus kompression paypoqlardan foydalanish

Shuni ham aytish joizki, kasallikni davolashdan koʻra, uni oldini olish har doim afzaldir. Varikoz kengayishini bartaraf etishga yordam beradigan quyidagi oddiy odatlar sogʻligʻingizni asrashda foydali boʻladi:



Agar ish faoliyatingiz o'tirib ishlash bilan bog'liq bo'lsa, tanaffuslar qiling, yengil mashqlar bajaring va imkon qadar ko'proq piyoda yuring.

Tik turgan holatda uzoq ishlasangiz, oyoqlarga dam berishni unutmang.

Oyoqni oyoq ustiga qo'yib o'tirish odatidan voz keching.

Juda tor kiyimlardan, ayniqsa tor jinsi yoki siquvchi kiyimlardan foydalanmang.

Har kuni baland poshnali poyabzal kiymaslikka harakat qiling, faqat alohida holatlar uchungina kiyish tavsiya etiladi.

Ich qotish muammosini e'tiborsiz qoldirmang — bu qon aylanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Velosipedda yurish va suzish kabi jismoniy faoliyatlar foydali hisoblanadi.

Ortiqcha vazndan saqlaning, ovqatlanishni nazorat qiling.¹

Xulosa qilib aytganda, venalarning varikoz kengayishi keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lib, uni erta aniqlash va davolash orqali asoratlarning oldini olish mumkin. Sog'lom turmush tarzi, doimiy jismoniy faollik va profilaktik choralar ushbu kasallikning rivojlanishini to'xtatishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Азимова Г.Ж. Флебология и варикозная болезнь. – Ташкент: Илм, 2021.
2. Национальное руководство по флебологии. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2018.
3. Khabirov R.R., Qon aylanish tizimi kasalliklari, ToshPTI, 2020.

¹ Khabirov R.R., Qon aylanish tizimi kasalliklari, ToshPTI, 2020.